

УЎК 796.011.3:032

## О‘ЗBEKISTON PARALIMPIYACHILARINING PARALIMPIYA О‘YINLARIDA ISHTIROKI VA TAHLILI ASOSIDA SPORT TA‘LIMINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

**Olimjon Shodiev**

O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi paralimpiya sport turlari  
bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti dotsenti v.b.

[olimjonshodiyev2020@gmail.com](mailto:olimjonshodiyev2020@gmail.com)

*Annotatsiya.* Maqolada O‘zbekiston paralimpiyachilarining Paralimpiya o‘yinlaridagi ishtiroki tahlil qilingan. Tahlillar natijasida sport ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy fikrlar keltirilgan.

*Kalit so‘zlar:* nogironligi bo‘lgan shaxs, paralimpiya o‘yinlari, parasportchi, 5x5 futbol, golbol, bochcha, ilmiy tadqiqot, o‘quv qo‘llanma.

## WAYS OF DEVELOPING SPORTS EDUCATION BASED ON THE PARTICIPATION AND ANALYSIS OF UZBEKISTAN PARALYMPIANS IN THE PARALYMPIC GAMES

**Olimjon Shodiev**

Acting associate professor at the Institute for Training Specialists in Paralympic  
Sports under the National Paralympic Committee of Uzbekistan.

*Summary.* The article analyzes the participation of Uzbek paralympians in the Paralympic Games. As a result of the analysis, scientific opinions on the development of scientifically based proposals and recommendations for the development of sports education are presented.

*Key words:* disabled person, Paralympic Games, para-athlete, 5x5 football, goalball, boccia, scientific research, training manual.

## ПУТИ РАЗВИТИЯ СПОРТИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПАРАЛИМПИЙЦЕВ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА И УЧАСТИЯ В ПАРАЛИМПИЙСКИХ ИГРАХ

**Олимжон Шодиев**

и.о. доцента Института подготовки специалистов по паралимпийским видам спорта при Национальном паралимпийском комитете Узбекистана

***Аннотация:** В статье анализируется участие узбекских паралимпийцев в Паралимпийских играх. В результате анализа представлены научные мнения по разработке научно обоснованных предложений и рекомендаций по развитию спортивного образования.*

***Ключевые слова:** Лицо с инвалидностью, Паралимпийские игры, пара спортсмен, футбол 5x5, голбол, бочча, научные исследования*

**Kirish.** Nogironligi bo'lgan shaxslarga sport bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan muhim tadbirlar o'z samarasini bera boshladi. Paralimpiya harakatini qo'llab quvvatlanishi natijasida, oxirgi 4 yil davomida O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi sportchilari 203 ta davlat ichida 16 o'ringa ko'tarildi. Mustaqillik sharofati bilan Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etishni yaqin tarixda boshlagan O'zbekiston parasportchilari uchun bu albatta, yuqori ko'rstgich. O'tgan 15 yil davomida paralimpiyachilarimiz faqat 8 ta yozgi, 1ta qishki sport turlaridan Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etishdi. Qishki Paralimpiya o'yinlarida terma jamoamiz 2014 yil Sochida 2 nafar, 2018 yil Pxyonchxanda 1 nafar sportchi bilan ishtirok etgan, medallar qo'lga kiritilmagan. Yozgi Paralimpiya o'yinlari dasturiga 22 ta sport turi qishki Paralimpiya o'yinlari dasturiga 6 ta sport turiga kiritilganligini inobatga olsak, sohada tizimli ishlarni amalga oshirish orqali qolgan sport turlarini ham jadal rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot maqsadi.** Paralimpiya o'yinlari natijalari asosida yozgi va qishki Paralimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan barcha paralimpiya sport turlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishda sport ta'limini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari:**

- rivojlantirilayotgan (mavjud) paralimpiya sport turlari bilan bir qatorda yangi tashkil etilayotgan paralimpiya sport turlarini hududlarda ommalashtirish imkoniyatlarini o'rganish;
- hududlarda paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj asosida sport ta'limini takomillashtirish darajasini aniqlash.

**Tadqiqotning uslubi.** Paralimpiya o'yinlari o'rganildi. Parasportchilar, trenerlar,

ota-onalar va mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovlardan foydalanildi. Bunda sport ta'lim muassasalariga sportchilarni qatnash imkoniyati, muassasalarni tegishli mutaxassislari bilan hamda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan sharoitlar va kerakli sport anjomlari bilan ta'minlanganlik holati o'rganildi hamda sohadagi yetuk mutaxassislarning fikrlari tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** O'zbekiston milliy paralimpiya assotsiatsiyasining Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasi a'zosi sifatida musobaqalardagi ilk ishtiroki 2008 yil sentyabr oyida Xitoyning Pekin shahrida o'tkazilgan XIII yozgi Paralimpiya o'yinlaridir. Ushbu musobaqada O'zbekiston 2 nafar sportchi - yengil atletika va pauerliftingdan Ravil Diganshin hamda suzishdan Farxod Sayidov bilan ishtirok etdi.

Pekin shaharida o'tkazilgan XIII yozgi Paralimpiya o'yinlari mamlakatimiz vakillari uchun o'ziga xos tajriba va mahorat vazifasini o'tadi. London-2012 Paralimpiya o'yinlariga 4 ta sport turidan 10 ta yo'llanmani qo'lga kiritishdi. O'zbekiston o'z tarixida va Markaziy Osiyo tarixida ilk marotaba kumush medalni qo'lga kiritdi. Bunda eng avvalo O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2009 yil 5 yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi sportchilarining 2012 yil London shahri (Buyuk Britaniya)da bo'lib o'tadigan XXX yozgi Olimpiada va XIV Paralimpiada o'yinlarida ishtirok etishga tayyorgarligi to'g'risida" qabul qilingan qaror asosiy omil bo'ldi [1]. Sportchilarimiz mamlakatimiz hamda xorijda zamonaviy me'yorlar asosida tashkil etilgan o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tab, ko'plab xalqaro musobaqalarda tajriba va mahoratlarini oshirdilar. Ularning yuqori sport tayyorgarligini ta'minlashga ko'maklashuvchi ilmiy - uslubiy, tibbiy biologik tadqiqotlar o'tkazildi.

2016-yil Braziliyaning Rio-de Janeyro shahrida o'tkazilgan navbatdagi Paralimpiya o'yinlari mamlakatimiz paralimpiya tarixida yangi sahifa ochdi. Boisi, musobaqaga 32 nafar sportchi bilan tashrif buyurgan terma jamoamiz jami 31ta medalni qo'lga kiritdi va umumjamoa hisobida 16-o'rinni (medallar soni bo'yicha 12-o'rin) egalladi. Sportchilarimiz tomonidan 6 ta Jahon, 7 ta Paralimpiya o'yinlari, 12 ta Osiyo rekordi o'rnatildi.

O'zbekiston paralimpiyachilari 2013-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston sportchilarini 2016-yilda Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XV Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash to'g'risida"gi Prezident qarori bo'yicha zamonaviy me'yorlar asosida o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazishib, tajriba va mahoratini oshirishdi [2].

| O‘zbekiston paralimpiyachilarining yozgi Paralimpiya o‘yinlaridagi ishtiroki  |                            |   |   |   |
|---|----------------------------|---|---|---|
| T/r   | Paralimpiya o‘yinlari nomi | Ishtirok etilgan sport turlari  | Sportchilar soni                        | Medallar soni   |
| 1.  | <b>Pekin-2008</b>          | 1. Para engil atletika<br>2. Para suzish  | <b>2 nafar</b> sportchi ishtirok etgan  | -   |
| 2.  | <b>London-2012</b>         | 1. Para engil atletika<br>2. Para suzish<br>3. Para dzyudo<br>4. Para paelifting  | <b>10 nafar</b> sportchi ishtirok etgan | <b>1 ta kumush</b> medal qo‘lga kiritilgan.   |
| 3.  | <b>Rio-2016</b>            | 1. Para engil atletika<br>2. Para suzish<br>3. Para dzyudo<br>4. Para paelifting<br>5. Para o‘q otish   | <b>32 nafar</b> sportchi ishtirok etgan | <b>31 ta medal</b> qo‘lga kiritilgan, shundan:<br><i>8 ta oltin;</i><br><i>6 ta kumush;</i><br><i>17 ta bronza.</i> |
| 4.  | <b>Tokio-2020</b>          | 1. Para engil atletika<br>2. Para suzish<br>3. Para dzyudo<br>4. Para paelifting<br>5. Para o‘q otish<br>6. Para taekvondo<br>7. Para baydarka va kanoe<br>8. Para akademik eshkak eshish | <b>46 nafar</b> sportchi ishtirok etgan | <b>19 ta medal</b> qo‘lga kiritildi, shundan:<br><i>8 ta oltin</i><br><i>5 ta kumush</i><br><i>6 ta bronza</i>      |
| O‘zbekiston paralimpiyachilarining qishki Paralimpiya o‘yinlaridagi ishtiroki |                            |   |   |   |
| 1.  | <b>Sochi-2014</b>          | 1. Para tog ‘chang‘isi  | <b>2 nafar</b> sportchi ishtirok etgan  | medal qo‘lga kiritilmagan   |
| 2.  | <b>Pxyonchxan-2018</b>     | 1. Para tog ‘chang‘isi  | <b>1 nafar</b> sportchi ishtirok etgan  | medal qo‘lga kiritilmagan   |

COVID-19 pandemiyasi sharoitida Tokio shahri (Yaponiya)da bo‘lib o‘tgan navbatdagi XVI yozgi Paralimpiya o‘yinlariga paralimpiyachilarimiz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 iyundagi “2021 yilda Tokio shahri (Yaponiya)da bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sport delegatsiyasining ishtirokini ta‘minlash hamda Olimpiya sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida kompleks tayyorgarlik ko‘rib, yana yuqori natijalarni qo‘lga kiritdi[4]. O‘zbekiston paralimpiya terma jamoasi 8 ta sport turidan bahslarda ishtirok etib, jami 19 ta medal qo‘lga kiritdi.

Erishilgan natijalarni mustahkamlab, yanada ko‘proq yutuqlarni qo‘lga kiritish uchun navbatdagi Paralimpiya o‘yinlariga aniq tizim asosida tayyorgarlik ko‘rish uchun yana bir qator muhim huquqiy asoslar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2021 yil 18 maydagi “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5114-son qarori qabul qilinib, Paralimpiya o‘yinlari dasturidan o‘rin olgan para stol tennisi, para badminton, 5x5 futbol, golbol, para velosport, para kamondan o‘q otish, bochcha, para qilichbozlik, para triatlon, sport turlarini yanada rivojlantirish hamda yaqin kelajakda para voleybol, aravachada basketbol, aravachada tennis, aravachada regbi sport turlarini keng ommalashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi [3]. Mazkur qarorga asosan 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida Paralimpiya fakulteti, hamda uning Nukus va Farg‘ona filiallarida, “Paralimpiya” kafedrası, shuningdek, “Adaptiv sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport” magistratura mutaxassisligi ochildi.

**2022-yil 6-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Davlat sport-ta’lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 268-son qarori [qabul qilindi](#).** Qaror bilan Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari tashkil etilishi, unda o‘qish jarayoni 2 ta bosqichda amalga oshirilishi ya’ni birinchi bosqichda 5–11-sinflar uchun Olimpiya maktablari, ikkinchi bosqichda 1–2-kurslar uchun Olimpiya va Paralimpiya kollejlari faoliyat ko‘rsatishi belgilandi[5].

Shuningdek, 2022-yil Samarqand shahrida Oliy sport mahorati instituti tashkil etilib, Institutga qabul Olimpiya va Paralimpiya kollejlari bitiruvchilarining sport natijalari (qoida tariqasida a’lo va yaxshi baholarga ega bo‘lgan iqtidorli o‘quvchi-sportchilar) asosida amalga oshirilmoqda[6].

Yana bir muhim oliy ta’lim muassasasi O‘zbekiston milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash institutini tashkil etilishi ham paralimpiya sport ta’limini rivojlantirish bo‘yicha muhim qadam bo‘ldi deyishimiz mumkin[7].

Paralimpiya harakatini rivojlantirish, sport ta’limini rivojlantirish borasida yetarli darajada muhim qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo‘lsada, sohada yana dolzarb masalalar o‘z yechimini kutmoqda. Bularning asosiysi yozgi va qishki paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan barcha sport turlarini respublikamizda keng ommalashtirish va rivojlantirish hisoblanadi. Parasport bo‘yicha sportchilarni o‘qitish va tayyorlashning barcha darajalarida sport mahoratidan bilim berishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish muhim bo‘lib turibdi.

Yuqorida tahlil qilingan Paralimpiya o‘yinlari natijalari asosida bildirilgan fikr-mulohazalar, yozgi va qishki paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan barcha sport turlarini respublikamizda keng ommalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan

tahlil natijalari, mutaxassislarning fikrlariga tayanib, quyidagi taklif va tavsiyalarni xulosa sifatida keltirish mumkin:

**Birinchidan**, yozgi va qishki paralimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan barcha sport turlari bo'yicha hududlarda paralimpiya sport turlari uchun mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni aniqlab olish lozim. Aniqlangan ehtiyojni inobatga olib, trenerlar, o'qituvchilar, jismoniy tarbiya instruktorlari, yo'riqchi-metodistlar va sport faoliyati yo'nalishlari bo'yicha boshqa mutaxassislarni tayyorlash va faoliyat yuritayotganlarini malakasini oshirishni yanada takomillashtirish lozim.

**Ikkinchidan**, paralimpiya sohasida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarni paralimpiya sport turlari rivojlangan xorijiy davlatlarda malakasini oshirish choralarini ko'rish va ularning ortirgan tajribasi asosida paralimpiya va noparalimpiya sport turlari bo'yicha o'quv adabiyotlari, o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklarni o'zbek tilida ishlab chiqish va ta'lim muassasalarini ta'minlash kerak. Shuningdek, sportchilarni paralimpiya sportining ma'lum bir turiga ixtisoslashgan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ishlariga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

**Uchinchidan**, yangi tashkil etilayotgan va kelajakda yangi tashkil etilishi rejalashtirilgan paralimpiya sport turlarini har tomonlama rivojlantirish va ommalashtirish uchun shu mutaxassislik bo'yicha malakali professor-o'qituvchilar mavjudligiga e'tibor qaratilmayapti. Xorij tajribasi esa oldin shu yo'nalishda yosh mutaxassislarga ta'lim bera oladigan malakali mutaxassislar yoki professor-o'qituvchilar mavjudligi holatidan kelib chiqqan holda tashkil qilishga ruxsat berilishini talab qiladi. Shundan kelib chiqib, malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini samaradorligini xorijiy davlatlar tajribasi asosida yanada oshirish hamda hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish o'z samarasini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi sportchilarining 2012-yil London shahri (Buyuk Britaniya)da bo‘lib o‘tadigan XXX yozgi Olimpiada va XIV Paralimpiada o‘yinlarida ishtirok etishga tayyorgarligi to‘g‘risida” qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-fevraldagi "O‘zbekiston sportchilarini 2016-yilda Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XV Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida"gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5114-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-iyundagi “2021 yilda Tokio shahri (Yaponiya)da bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sport delegatsiyasining ishtirokini ta‘minlash hamda Olimpiya sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi ”Davlat sport-ta‘lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 268-son qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi “Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-269-son qarori.

7. Vazirlar Mahkamasining 14.10.2022-y.gi “O‘zbekiston milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 599-son qarori.